AZIZ YURTDOSHLAR, RAMAZON HAYITINGIZ MUBORAK BO‘LSIN!

KUCH ADOLATDADIR Amir Temur

ADOLAT MEZONI

GAZETA 2010-YIL 3-MAYDAN CHIQA BOSHLAGAN | HUQUQIY-IJTIMOIY VA MA’NAVIY-MA’RIFIY GAZETA | ISSN 2181 - 483X www.andijonsadosi.uz | № 12 (542) 2025-YIL, 29-MART

Shavkat Mirziyoyev 14-mart kuni "Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarorni imzoladi.

TADBIRKOR AYOLLARGA GAROVSIZ KREDIT BERILADI

Qarorga ko‘ra, 2025-yilda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashning asosiy maqsadli ko‘rsatkichlari etib quyidagilar belgilandi:

2 million nafar xotin-qizlarning bandligini ta'minlash;

250 ming nafar xotin-qizlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitish;

250 ming nafar xotin-qizlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish;

50 ming nafar ehtiyojmand xotin-qizlarni sanatoriylarda sog‘lomlashtirish hamda ularda tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha motivasion seminarlar tashkil etish.

"Hamroh" tadbirkor ayollarni qo‘llab-quvvatlash dasturi doirasida 2025-yil 1-maydan:

xotin-qizlarga "yashil loyihalar" va IT sohasidagi loyihalarni amalga oshirishiga, shuningdek, kamida 5 nafar xotin-qizning tadbirkorligini yo‘lga qo‘yishga ko‘maklashgan 1 ming nafar "ustoz" tadbirkorlarga 50 million so‘mgacha grant ajratish yo‘lga qo‘yiladi;

ijobiy kredit tarixiga ega bo‘lgan xotin-qizlarga 100 mln so‘mgacha garovsiz kredit ajratiladi;

ayol tadbirkorlar tomonidan kredit hisobidan sotib olinayotgan asbob-uskunalar yetkazib berilgunga qadar "Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" AJ tomonidan kafillik taqdim etilishi yo‘lga qo‘yiladi.

Qarorga muvofiq, quyidagi imkoniyatlarga ega "Tadbirkor ayollar" platformasi 2025-yil 1-iyulgacha ishga tushiriladi:

ayol tadbirkorlarga xomashyo sotib olishga ko‘maklashish;

o‘zaro kooperatsiyani kengaytirish va mahsulotlarni sotish uchun bozor topish;

zarur mutaxassislarni izlash va ishga qabul qilish;

loyihalar doirasida yuzaga kelayotgan muammolarini aniqlash va ularga yechim topish.

2025-yil 1-maydan quyidagilarni nazarda tutuvchi "Hamkor tadbirkor" dasturi yo‘lga qo‘yiladi:

o‘z biznesini tashkil etmoqchi bo‘lgan xotin-qizlarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish;

kooperatsiya asosida xotin-qizlarning tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yishga ko‘maklashish;

mahalliy va xalqaro elektron platformalarda xotin-qizlarga o‘z mahsulotlarini joylashtirish va sotishga ko‘maklashish.

Har yili "Ayollar daftari"ga kiritilgan va ehtiyojmand xotin-qizlarning 50 ming nafariga Toshkent viloyatidagi dam olish maskanlarida psixologik yordam ko‘rsatish va tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha motivatsion seminarlar tashkil etiladi.

2025-yil 1-avgustgacha Ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishida moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish strategiyasi tasdiqlanadi. Yetakchi ishbilarmon ayollardan iborat Tadbirkor ayollar kengashi tashkil etiladi.

Eslatib o‘tamiz, 7-mart kuni bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda prezident Shavkat Mirziyoyev ayol tadbirkorlar uchun banklar tomonidan arzon kreditlar taqdim etilishi bo‘yicha topshiriq bergandi. 2025-yilda 2 mln nafar ayollar bandligini ta'minlash, shundan 1 million 300 ming nafar xotin-qizni tadbirkorlikka jalb etish belgilangan.

Davlat rahbarining 8-martdan kuchga kirgan qaroriga asosan, Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi yetti yil muddatga, Markaziy bankning asosiy yillik stavkasi bo‘yicha jami 100 mln AQSh dollari ekvivalentida - shundan AT "Xalq banki"ga - 35 mln AQSh dollari, "Biznes rivojlanish banki" ATBga - 35 mln AQSh dollari va "Mikrokreditbank" ATBga - 30 mln AQSh dollari miqdorida kredit resurslarini ajratishi belgilangandi.

Umidbek XAKIMOV,
Ąndijon viloyati Adliya boshqarmasi sho‘ba boshlig‘i.

RAMAZON HAYITI EZGULIK VA MEHR–OQIBAT BAYRAMI

Poklanish oyi ham yakunlanayotgan bo‘lib, mamlakatimizda Ramazon hayiti keng nishonlanadi. Mehr-muruvvat, oqibat, saxovat kabi xalqimizga xos ezgu fazilatlar ifodasi bo‘lmish ushbu ayyom dillarga surur baxsh etishi bilan alohida qadrlidir.

Andijon viloyati Xo‘jaobod tumani "Erkaboy devona" jome' masjidi imom-xatibi Lutfulloxon JAHONGIROV bilan Ramazon hayitining mazmun-mohiyati xususida suhbatlashdik.

-Yaqindagina tashrifini kutganimiz Ramazonning nihoyalanishiga sanoqli soatlargina qoldi. Bir tomondan oldimizda eshik qoqib turgan Ramazon hayiti shukuhidan ko‘nglimiz masrur bo‘lsa, ikkinchi jihatdan bir oylik barokatli mehmonimizni kuzatganimizdan mahzunlik tuyayotganimiz ham bor gap.

Diyorimizning mo‘min-musulmonlari "Iydi-Fitr", ya'ni Ramazon hayiti kabi ulkan shodiyonani ham intiqlik ila kutmoqdalar.

Davlatimiz rahbarining Ramazon hayitini nishonlash to‘g‘risida qarori qabul qilindi. Shunga ko‘ra, yurtimizda bu kun dam olish kuni deya e'lon qilinib, yurtdoshlarimiz orasida hayit bayrami o‘zgacha kayfiyatda nishonlanadi.

Bu ma'noda Alloh taolo o‘zining muborak Kalomida shunday marhamat qilgan: "Ayting: Allohning fazli va rahmati bilan, bas (albatta) shular sababli (mo‘minlar) shodlansinlar! U to‘plagan narsa (boylik)laridan yaxshiroqdir" (Yunus surasi, 58-oyat).

Xalqimiz qadimdan, Islom dini bilan musharraf bo‘lgan kundan boshlab "Ramazon hayiti" kunini tantanali ravishda bayram qilib nishonlab kelgan. Iyd namozini o‘qish uchun butun shahar ahli bir namozgohga yig‘ilgan.

Vatanimiz istiqlolga erishgan davrdan boshlab esa Ramazon hayiti bayrami keng miqyosda, shu kunni dam olish kuni sifatida nishonlanishi bizning milliy va diniy qadriyatlarimiz, dinimiz shiorlariga ko‘rsatilayotgan hurmat va e'tibordan nishonadir.

Qutlug‘ kunlarda qanday ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq? Hayit kunlari yaqinlar, keksalar, bemorlar va beva-bechoralar holidan xabar olish, faqiru kambag‘allarga moddiy yordam ko‘rsatish, bolalarga hayitlik sovg‘alari ulashish xalqimiz ichida an'anaga aylangan. Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: "Kim bir mo‘minning dunyo qayg‘ularidan birini ketkazsa, Alloh uning qiyomat kunidagi qayg‘ularidan birini ketkazadi. Kim dunyoda bir qiynalgan (birodari)ning og‘irini yengil qilsa, Alloh taolo uning qiyomatdagi og‘irini yengil qiladi. Kim bir musulmonni aybini berkitsa, Alloh taolo uni dunyo va oxiratda satr qiladi. Qaysi bir banda birodarining yordamida bo‘lsa, Alloh taolo ham uning yordamida bo‘ladi", - deganlar (Imom Muslim rivoyati).

Shuningdek, hayit arafasida qo‘ni-qo‘shnilarga mehr-muruvvat ko‘rsatish bilan birga moddiy yordamga muhtoj kishilar, ya'ni kam ta'minlangan oilalarga xayr-ehson qilinsa, ularning xonadonlariga ham bayram shukuhi kirib kelgan bo‘ladi.

Shu o‘rinda esga olish lozim bo‘lgan yana bir jihat, "Fitr sadaqasi" ro‘zadan chiqish munosabati bilan beriladigan sadaqa hisoblanadi. Bu moliyaviy ibodat shariatimizda ro‘zadorning ro‘zasi komil bo‘lishiga xalal beradigan turli behuda gap-so‘z va xatti-harakatlardan poklash va miskinlarga taom bo‘lish ma'nosida joriy qilingan.

Hanafiy mazhabiga ko‘ra "Ramazon hayiti" kuni tong otishi bilan "sadaqai fitr"ni berish vojib bo‘ladi. Ammo undan oldin Ramazonning avvalgi kunlarida berish ham joiz hisoblanadi. "Fitr sadaqasi"ni berish tufayli kambag‘allarning xonadonlariga ham xursandchilik ulashilgan bo‘ladi.

Shuningdek, uzoqlashib ketgan qarindoshlar bilan, ayrim arazlashgan do‘st-yaqinlar bilan hayit bahonasida aloqalarni tiklash, yarashib olish lozim. Zero, silai rahmni uzgan yoki musulmon birodariga gina qilgan kishilarga fazilatli kunlarning yaxshiligi yetmasligi haqida rivoyatlar bor. Shu bois, bunga jiddiy qarash kerak. Bunday holatlarda hayitliklar berish ham oradagi kuduratni ko‘tarilishiga sabab bo‘ladi.

Fursatdan foydalanib shuni aytmoqchimanki, barcha mo‘min-musulmon olami, jumladan, xalqimizga Ramazon hayiti muborak bo‘lsin. Bu kunni barakotidan savobli amallarni ko‘paytirishni Yaratganning o‘zi nasib aylasin.

«YASHIL MAKON» LOYIHASI - AMALDA

Yurtimizning har bir go‘shasida bahor nafasi kezmoqda. Har yili mana shu pallada obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish, daraxt va gul ko‘chatlari o‘tqazish ishlari avj oladi.

Xo‘jaobod tumanidagi Devona "Erkaboy devona" jome' masjidida ham "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida ko‘klamgi yumushlar boshlab yuborildi.

Xalqimizda "Yaxshidan bog‘ qoladi" degan an'anaga rioya qilgan jamoa masjid hovlisidagi mavjud tomorqaga sosna daraxtlari ekdilar.

M.MAMATQULOV.
Suratda: masjid imomi Lutfulloxon Jahongirov.
Muallif olgan surat.



HAMMA GAP INTIZOMDA YOKI KREDIT QARZDORLIGINI UNDIRISH BILAN BOG‘LIQ SUD BUYRUQLARI HAQIDA

So‘nggi yillarda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga yaratilgan keng imkoniyatlar va xalqimiz turmush tarzini yanada yaxshilashga qaratilgan siyosiy qarorlar natijasida aholi o‘rtasida bank va boshqa kredit tashkilotlari bilan kredit shartnomalari tuzish orqali pul mablag‘lari, tovarlarni muddatli to‘lovga olish tendensiyasi keng avj oldi.

Albatta bu holat tadbirkorlik faoliyati orqali yaxshi daromad olish va aholini o‘z ehtiyoji uchun zarur bo‘lgan mahsulotlarni bo‘lib to‘lash imkonini berdi. Har ikki tomon ham bundan o‘ziga yarasha manfaatdor.

Qonunchilikka ko‘ra, kredit shartnomasi bo‘yicha bir taraf - bank yoki boshqa kredit tashkiloti (kreditor) ikkinchi tarafga (qarz oluvchiga) shartnomada nazarda tutilgan miqdorda va shartlar asosida pul mablag‘lari (kredit) berish, qarz oluvchi esa olingan pul summasini qaytarish va uning uchun foizlar to‘lash majburiyatini oladi. Oddiyroq tilda tushuntirilganda, kimdir (bank yoki tadbirkor) bilan siz o‘zaro kredit, ya'ni olingan pul yoki boshqa tovarni o‘zaro kelishuvga ko‘ra bo‘lib to‘lash majburiyatini bo‘yningizga olgan shartnoma tuzasiz va ushbu shartnoma shartnomada belgilangan shartlarni o‘z vaqtida bajarasiz.

Bunday olganda hammasi risoladagidek. Hammasi tushunarlidek. Biroq, aslida iqtisodiy samaradorlikni ko‘zlagan ushbu jarayon amalda ham o‘zini oqlayaptimi, aholining ijtimoiy-iqtisodiy holati uning kredit to‘lov(lar)ini amalga oshirishga to‘liq imkon beryaptimi, kredit shartnomasi bo‘yicha majburiyatlarni bajarish uning uchun qay darajada oson yoki yengil bo‘lmoqda, bu endi iqtisodchilar tomonidan o‘rganiladigan masala.

Ushbu holatlarni yuridik tomondan tahlil qiladigan bo‘lsak, so‘nggi uch yil davomida sudlarda kredit qarzdorlikni undirish bilan bog‘lik ishlarni ko‘rib chiqish holati keskin ko‘paygan.

Hattoki, bir nafar fuqaroning yakka o‘zi tomonidan bir necha o‘nlab olingan kredit to‘lovlarini to‘lay olmasligi natijasida sudga kelib tushgan arizalar ham yetarlicha topiladi. Mazkur holatlardan shu ko‘rinadiki, aholimiz o‘rtasida moddiy imkoniyatlarni to‘g‘ri taqsimlash masalasida moliyaviy savodxonlik hali juda past darajada yoki ushbu holatni o‘ziga kasb qilib olgan qo‘shtirnoq ichidagi "tadbirkor"lar ham ko‘payib qolgan.

Sudga kelib tushayotgan minglab kredit qarzdorlikni undirish bo‘yicha arizalar va da'volarni kuzatar ekanmiz, fuqarolar tomonidan olingan kreditlar bir necha oy davomida to‘lanmaganligi yoki o‘z vaqtida to‘lanmaganligi sababli majburiy undirish choralarini ko‘rish uchun berilayotganligiga guvoh bo‘lamiz.

Barchaga ma'lumki, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudining 2022-yil 10-iyun kungi № 22-6 sonli yozma ko‘rsatmasiga binoan ko‘chmas mulk garovi bilan ta'minlanmagan, yozma bitimga asoslangan qarz va kredit munosabatlari bo‘yicha qarzdorlikni sud buyrug‘i tartibida undirish belgilangan.

Bu esa sudlarga, kelib tushgan arizalarni sud muhokamasisiz, taraflar ishtirokisiz va eng asosiysi qisqa muddatda ko‘rib chiqish imkonini berdi. Vaqtning tejalishi esa, o‘zi shundoq ham da'vo arizalar hajmi ortib borayotgan bir vaqtda sudlar uchun ayni muddao bo‘ldi.

Biroq, kaltakning bir uchi borki bunda intizomli (ya'ni, shartnoma shartlariga rioya qiladigan, to‘lovlarni o‘z vaqtida amalga oshiradigan) faqat bir necha kunga to‘lovni kechiktirgan va intizomsiz (to‘lovlarni o‘z vaqtida amalga oshirmaydigan yoki umuman to‘lamaydigan) shaxslarning bir xil tarzda javobgar bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda.

Xususan, har ikki to‘lovchiga nisbatan ham sud tomonidan qarzdorlik summasidan kelib chiqqan holda davlat boji va boshqa sud xarajatlari undirish belgilanmoqda. Nisbatan o‘z majburiyatiga mas'uliyat bilan qaraydigan kredit to‘lovchi ham to‘lamaydigan ham bir xil tarzda javobgar bo‘lmoqda. Qo‘polroq aytganda "ho‘lu quruq" baravar yonmoqda.

Bundan xulosa shuki, biz avvalambor aholimizni to‘lov intizomiga rioya qilishga doir huquqiy savodxonligini oshirish borasida targ‘ibot va tashviqot ishlarini muntazam amalga oshirishimiz va o‘z ehtiyojidan ortiq yoki to‘lov qilishga qobiliyati yetarli bo‘lmagan kredit shartnomalarini tuzishdan o‘zlarini tiyilishga, uning to‘lay olmasligi natijasida kelib chiqadigan huquqiy oqibatlarga keng jamoatchilikni jalb qilgan holda tushuntirish ishlarini olib borishimiz zarur.

Zero, xalqimizda bir gap bor - har bir ishni qilishdan avval yetti o‘lchab bir kes - o‘ylamay qilingan ish esa oxir-oqibat tashvish keltirishi aniq.

A.TEMIROV,
fuqarolik ishlari bo‘yicha Marg‘ilon tumanlararo sudi sudyasi.

AHOLI SUD MUHOKAMALARIDA MASOFADAN ISHTIROK ETISHINING HUQUQIY ASOSLARI YARATILMOQDA

Zamonaviy sivilizatsiyaning eng muhim geosiyosiy va texnologik tendensiyalaridan biri - davlat boshqaruvi tizimlarini kompleks raqamlashtirish va demokratlashtirish jarayonlaridir. Ushbu global kontekstda O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 11-martdagi "Aholiga sud muhokamalarida masofadan ishtirok etish uchun yanada qulay sharoitlar yaratilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida"gi O‘RQ-1047-son Qonuni mamlakatimiz sud tizimining fundamental transformatsiyasining strategik manifesti sifatida alohida ahamiyatga ega. Bu faqat texnologik yechimlar to‘plami emas, balki mamlakatimizning huquqiy tizimini yangi sifat bosqichiga ko‘taradigan kompleks strategik yo‘nalishdir.

O‘zbekiston Respublikasining ushbu qonuni sudlarni raqamlashtirish va demokratlashtirish jarayonlarining kompleks va ko‘p qirrali tizimli bosqichini belgilaydi.

Qonunning asosiy konseptual mohiyati mamlakatimizning huquqiy tizimini global demokratik va texnologik standartlarga moslashtirishga qaratilgan. Video-konferens va mobil kommunikatsiya texnologiyalari orqali sud jarayonlarining geografik chegaralari butunlay o‘zgartirilmoqda. Fuqarolar o‘z yashash joyi bo‘yicha joylashgan sudlarning video-konferens tizimlaridan foydalangan holda, jismonan sud zaliga kelmasdan ham, to‘liq huquqli sud jarayoni ishtirokchisi bo‘lishi mumkin bo‘ladi.

Axborot texnologiyalari orqali ishtirokchilarning shaxsini aniqlashning innovatsion mexanizmlari sud jarayonlarining xavfsizligi va ishonchliligini ta'minlashga qaratilgan. Guvohlar, ekspertlar va boshqa ishtirokchilarning huquqlari va majburiyatlari audio va video yozuv orqali qayd etilishi nazarda tutilgan. Bu esa sud jarayonlarining hujjatlashtirish, monitoring va auditorlik mexanizmlarini yanada mukammallashtiradi. Shaxsni aniqlashning yangi usullari sud jarayonlarining ishonchliligini oshiradi, uning demokratik va ochiq o‘tishini ta'minlaydi.

Qonun preambulasida ko‘rsatilishicha, keyingi yillarda mamlakatimizda sudlov faoliyatini raqamlashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlar fuqarolarning o‘z huquqlari va manfaatlarini himoya qilish yo‘lida sudlarga murojaat qilishini liberallashtirishga, umuman odil sudlovga erishish darajasini oshirishga va sudlar faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlashga imkon berdi.

O‘zbekistoning Fuqarolik protsessual kodeksi, Iqtisodiy protsessual kodeksi va Ma'muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksga kiritilgan fundamental o‘zgartirishlar butun sud tizimining filosofik va konseptual qayta qurilishidir. Ushbu o‘zgartirishlar faqat texnik-texnologik yengilliklarg qaratilgan normativ hujjat emas, balki mamlakatimiz huquqiy tizimining butun paradigmasini yangi sifat darajasiga ko‘taradigan strategik hujjatdir.

Ushbu o‘zgartirishlarning strategik maqsadlari juda keng va ko‘p qirrali bo‘lib, mamlakatimizning huquqiy tizimini global standartlar darajasiga ko‘tarish va fuqarolarning huquqiy madaniyatini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan:

Birinchidan, fuqarolarning huquqiy madaniyatini yangi sifat darajasiga ko‘tarish va ularning huquqiy savodxonligini oshirish muhim ahamiyatga ega.

Ikkinchidan, sudga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash va uning legitimligini oshirish strategik maqsadlardan biridir.

Uchinchidan, davlatning huquqiy tizimini yanada demokratlashtirish va globallashtirish muhim strategik yo‘nalishdir.

To‘rtinchidan, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini oshirish ko‘zda tutilgan.

Kutilayotgan natijalar juda keng va ko‘p qirrali. Sud jarayonlarining tezligi va samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Fuqarolarning huquqiy xizmatlarga kirishi osonlashadi. Sud tizimining shaffofligi va ochiqligi yanada kuchayadi. Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini oshiradi.

Global raqamlashtirish kontekstida ushbu qonun faqat O‘zbekiston uchun emas, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasi uchun strategik ahamiyatga ega. U mamlakatimizning huquqiy tizimini yangi sifat bosqichiga ko‘taradi, fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshiradi va davlat boshqaruvi tizimini yanada demokratik va samarali qilishga xizmat qiladi. Ushbu qonun mintaqadagi boshqa davlatlar uchun ham namuna bo‘la oladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta'kidlash kerakki, O‘zbekiston Respublikasining ushbu qonuni mamlakatimizning huquqiy tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘taradi. U faqat texnologik yengilliklarg asoslanib qolmasdan, balki fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish, davlat boshqaruvi tizimini yanada demokratik va samarali qilishga qaratilgan keng qamrovli strategik hujjat hisoblanadi. Ushbu qonun O‘zbekistonning kelgusi rivojlanish strategiyasining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, mamlakatimizning yangi geosiyosiy va texnologik realliklarga moslashuvini ta'minlaydi.

M.BAYBEKOVA,
Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudining sudyasi.

«INSON»DAN INSONGACHA

O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy sohaga oid siyosati har bir fuqaroning hayotini yaxshilash, ularni himoya qilish va barqaror rivojlanishga olib kelishga qaratilgan. Bu yo‘nalishda mamlakatimizda ijtimoiy xizmatlar tizimini mustahkamlash maqsadida bir qator muhim loyihalar va tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Ushbu loyihalarning biri va eng ahamiyatlisi - Prezident huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi tasarrufida tashkil etilgan "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi bo‘lib, u fuqarolarga turli soha bo‘yicha ko‘rsatilayotgan xizmatlari bilan alohida ahamiyatga ega.

Tuman "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari hozirda fuqarolarga ijtimoiy himoyaga oid 100 dan ortiq xizmatlarni ko‘rsatmoqda. Bu xizmatlar ma'naviy barqarorlikni ta'minlash, oilaviy munosabatlarni mustahkamlash, ijtimoiy va psixologik muammolarni hal etishga qaratilgan. Mazkur markaz faoliyatining muhim tarkibiy qismlaridan biri - psixologik xizmatlarning ko‘rsatilishi hisoblanadi.

"Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi tomonidan fuqarolarga ko‘rsatilayotgan psixologik xizmatlar rivojlanishida har bir shaxsning o‘ziga xos ehtiyojlari va muammolarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Psixologik yordam nafaqat ayni vaqtdagi muammolarni bartaraf etish, balki insonning ichki holatini yaxshilash, stressni kamaytirish va hayotiy qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi.

Psixologik xizmatlar jumlasiga quyidagi yo‘nalishlar kiradi:

Shaxsga yo‘naltirilgan psixoterapevtik xizmatlar, oilaviy psixologik xizmatlar, bolalar va yoshlarga psixologik yordam, fuqarolarning ijtimoiy holatini tahlil qilish va guruh terapiyalar.

Tuman "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi fuqarolarga ko‘rsatilayotgan psixologik xizmatlar ularning ichki salomatligini yaxshilash, oilaviy munosabatlarni mustahkamlash, ijtimoiy va shaxsiy muammolarni hal etishda muhim rol o‘ynaydi. Bu xizmatlar fuqarolarning barqarorligi, ijtimoiy rang-barangligi va umumiy psixoemotsional holatini yaxshilashga ko‘maklashadi. "Inson"dan insongacha bo‘lgan yo‘lda, ijtimoiy xizmatlar, ayniqsa psixologik yordam, har bir fuqaroning hayotiga mustahkam va ishonchli asoslar yaratishga qaratilgan.

Zarifaxon SAYDALIYEVA,
Shahrixon tuman "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi psixologlar guruhi bosh mutaxassisi.

«YOSH JURNALISTLAR MAHORAT MAKTABI» TINGLOVCHILARI UCHUN NAVBATDAGI MASHG‘ULOT O‘TKAZILDI

O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi Andijon viloyat bo‘limi qoshida tashkil etilgan "Yosh jurnalistlar mahorat maktabi" bugungi kunga qadar ko‘plab iste'dodli yoshlarni kashf etib, ularni sohada yetuk kadr bo‘lib yetishishida yaqindan yordam berib kelmoqda.

So‘ngi yillarda to‘garakni muvaffaqiyatli tamomlagan ko‘plab yoshlar oliy ta'lim muassasalarining jurnalistika yo‘nalishida tahsil olmoqdalar.

Bugun to‘garakning navbatdagi dars mashg‘ulotida "Reportaj" janri haqida tinglovchilarga tushunchalar berildi.

- Jurnalistika sohasiga bolaligimdan qiziqaman. Shu sabab ushbu to‘garakda ishtirok etishga va yetuk jurnalist bo‘lishga qaror qilganman. Mashg‘ulotlar o‘zgacha va qiziqarli tarzda o‘tmoqda, - deydi to‘garak a'zosi Shahzodbek Abdullayev

Mashg‘ulotni jurnalist Abduvali Qurbonov olib bordi.



D. ABDUMAJIDOVA,
«Adolat mezoni» muxbiri.

«Yosh kitobxon»: g‘oliblarga Prezident sovg‘asi va pul mukofoti topshirildi



Ayni kunlarda Andijon viloyati Marhamat tumanidagi Yoshlar kutubxonasida "Yosh kitobxon" tanlovining respublika final bosqichi bo‘lib o‘tmoqda.

Belgilangan 10-14, 15-19 hamda 20-30 yosh toifasida o‘tkazilayotgan tanlovning 10-14 yoshli ishtirokchilari o‘rtasidagi bahslar yakuniga yetib, g‘olib va sovrindorlar nomi ma'lum bo‘ldi.

Beshta shart bo‘yicha o‘z bilim va salohiyatlarini sinovdan o‘tkazgan ushbu yosh toifasidagi g‘olib hamda sovrindorlarni taqdirlashga bag‘ishlangan tadbirda qatnashchilarning har biri tanlovda munosib ishtirok etgani alohida e'tirof etildi.

Tanlovning yakuniy natijalariga ko‘ra, eng yuqori - 356,7 ball jamg‘argan Toshkent shahri vakili Dilbarxon Haydarova g‘olib, deb topildi. Unga Prezident sovg‘asi - "Chazor" elektromobili tantanali ravishda topshirildi.

Tanlovda 334,7 ball jamg‘argan Samarqand viloyati vakili Gulmira Norpo‘latova 75 million so‘m, 321 ball to‘plab uchinchi o‘rinni egallagan navoiylik Nastarin Ibrohimova 50 million so‘m, qolgan barcha ishtirokchilar 10 million so‘mdan pul mukofoti bilan taqdirlandi.

Eslatib o‘tamiz, "Yosh kitobxon" tanlovining respublika final bosqichi 31 martga qadar davom etadi.

M.MAMATQULOV.
"Adolat mezoni" muxbiri.

«QO‘SH KO‘PRIK»LIKLARNING KO‘P YILLIK ORZUSI USHALDI



Oltinko‘l tumanida aholiga munosib turmush sharoitini yaratish borasida ko‘plab xayrli ishlar amalga oshirilmoqda. Yo‘l, elektr energiyasi, tabiiy gaz, tibbiyot, xalq ta’limi, aholini ish bilan ta’minlash, tomorqachilik va tadbirkorlikni rivojlantirish, qo‘yingki, barcha sohalarda o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Jumladan, aholini ichimlik suvi bilan ta’minlash borasida ham keng ko‘lamdagi ishlar olib borildi. Birgina 2024-yilning o‘zida 5700 metr masofaga suv tarmog‘ini tortish, 2 ta suv qudug‘i va 1 ta suv tozalagich uskunasining o‘rnatilishi orqali 400 nafar aholi ilk bor ichimlik suvi bilan ta’minlangan bo‘lsa, 650 nafar hamyurtlarimizga xizmat ko‘rsatish sifati yanada yaxshilandi. Masalan, "Qo‘sh ko‘prik" mahallasi tumandagi eng qadimiy manzillardan biri hisoblanadi. Qariyb yuz yillik tarixga ega ushbu hududda aholi suvni ma’lum masofadan tashib kelardi.

- Ushbu mahallada ichimlik suvi tarmog‘i mavjud bo‘lmaganligi bois aholi suvni 1-2 km. uzoqdan tashib kelishlariga to‘g‘ri kelgan, - deydi "Andijon suv ta’minoti" AJning tumandagi filiali xodimi Shahobiddin Ahmedov. - Hududlar infratuzilmasini o‘rganish jarayonida har bir xonadonda xatlov o‘tkazildi. Aholi bilan yuzma-yuz suhbatlar uyushtirilib, murojaatlari tinglandi. Shundan so‘ng mavjud muammolarni bartaraf etish choralari ko‘rildi. Ichimlik suvi ta’minotini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha xayrli ishlarga kirishildi. Natijada 3,1 km masofaga tarmoq tortilib, 200 ta xonadon ilk bor ichimlik suvi bilan ta’minlandi. Bitta suv qudug‘i va minorasi o‘rnatilishi orqali mahalladagi mavjud xonadonlarning har biriga suv jo‘mraklari olib kirildi.

Hududda yuzaga kelgan bunday o‘zgarishlardan aholi minnatdor. O‘zingiz tasavvur qiling, yetmish, sakson, hatto yuz yillar davomida orzuga, yechimsiz muammoga aylangan ichimlik suvi ta’minotining qisqa muddatda yo‘lga qo‘yilishi ushbu mahallada yashovchi aholi uchun kutilmagan hodisa bo‘ldi. Bu ham respublikamizda xalq farovonligi yo‘lida amalga oshirilayotgan ishlarning ijobiy samarasidir.

- Shu mahallada yetmish uch yildan beri yashab kelmoqdaman, - deydi mehnat faxriysi Ahmadali Hamdamov. - Mahallamizda suv ta’minotiga doir qurilish ishlariga kirishilganida, ishongim kelmagandi. Bu o‘zgarishlar ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ldi. Hozir har birimizning xonadonimizga ichimlik suvi kirib keldi. Oilamiz bilan xursand bo‘lib, shu ishlarga bosh bo‘lganlarni duo qilyapmiz.

Ayni paytda tumanning suvlashganlik darajasi 87 foizni tashkil etmoqda. O‘tgan yilda bu ko‘rsatkich 82 foizdan iborat edi. Hududlarni kompleks rivojlantirishga doir sa’y-harakatlar natijasida yil yakuniga qadar suvlashganlik darajasi 91 foizga yetkazilishi rejalashtirilgan.

Saminjon HUSANOV,
O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi.

Bugun ko‘ngillarga xushnudlik baxsh etib yurtimizda bahor shabadasi esmoqda. Quyoshning iliq taftidan bahra olayotgan zamin, dov-daraxtlar yashil libosini kiymoqda. Zilol suvlari shildirab oqayotgan ariq bo‘ylarida, dalalarda ko‘katlar bosh ko‘tarib, ko‘kka bo‘y cho‘zmoqda.

BULOQBOSHIDA SUMALAK SAYLI



Xalqimizning qadim bayrami Navro‘zi olam arafasida yurtdoshlarimiz qalbida shukronalik, elimizga tinchlik, bir-birlariga omonlik tilaydi. Tabarruk keksalarimizning qo‘llari esa duoda.

Prezidentimizning joriy yil 21-fevraldagi "2025-yilgi Navro‘z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida"gi qarorida belgilangan vazifalar ijrosi doirasida Andijon viloyatining tuman va shaharlarida "Inson qadri uchun, inson baxti uchun", degan bosh g‘oya asosida Navro‘z bayrami sayllari, turli tadbirlar bo‘lib o‘tmoqda.

O‘zining go‘zal tabiati, mirishkor dehqonlari bilan elga tanilgan Buloqboshi tumanida ham bayram tadbirlari har yilgidan-da o‘zgacha, yuqori ko‘tarinkilik bilan o‘tkazilmoqda. Ana shu tantanalarda ishtirok etgan qaysi bir yurtdoshimiz bilan suhbatlashmaylik, ularning qalbida shukronalik, hayotdan mamnunlik, obod yurtidan faxrlanish tuyg‘ulari jo‘sh urayotganligini anglash mumkin.

- Shu kunlarga yetkazganiga shukr, - deydi Buloqboshi tumani Shohtepa mahallasida yashovchi, mehnat faxriysi, "Shuhrat" medali sohibasi Ra'noxon Jumaniyozova. - Qancha-qancha odamlar bugungi dorilamon kunlarni ko‘rolmay o‘tib ketdi. Yurtimiz obod, hayotimiz tinch, dasturxonlarimiz to‘kin. Bu xalqimizning niyati xolisligi, mehnatsevarligi, yurtdoshlarimizning xayrli ishlarga kamarbastaligi sharofatidandir.

Navro‘z kunlarida mahalla, guzar va ko‘chalarda, xonadonlarda obodonlashtirish ishlari, hashar tadbirlari, xalqimizning azaliy udumlarini, odamlar o‘rtasida mehr-oqibat rishtalarini yanada mustahkamlamoqda.

Viqorli Chilustun tog‘lari etagida joylashgan, o‘zining so‘lim va go‘zal tabiati har qanday kishini maftun etuvchi Buloqboshida karnay-surnaylar sadolari bilan boshlangan "Har kuning Navro‘z bo‘lsin, jonajon O‘zbekiston!" deb nomlangan Navro‘z bayrami xaqiqiy xalq sayliga aylanib ketdi. Tuman bolalar va o‘smirlar sport maktabi stadionida bo‘lib o‘tgan bayram tadbirida tumandagi mahallalar, ta'lim muassasalari, korxona va tashkilotlarning vakillari, barcha buloqboshiliklar ishtirok etdi.

Jamoalar tomonidan alohida joylar tayyorlanib, milliy liboslar, milliy taomlar ko‘rgazmalari namoyish etildi.

- Keyingi yillarda Buloqboshi tumanida ham katta hajmdagi qurilish va bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi, - deydi tuman hokimi Furqatbek Bo‘taxonov. - Tumanning barcha mahallalari obodonlashib, yangi-yangi korxonalar, keng va ravon yo‘llar, ta'lim va tibbiyot muassasalari, sport majmualari, stadionlar, bog‘ va xiyobonlar bunyod etildi. Bu kabi ishlar ko‘lami yildan-yilga ortib bormoqda.

Darhaqiqat, keyingi yillarda tuman markazi, tumandagi aksariyat mahallalar qiyofasi tubdan o‘zgardi. Ayniqsa, tuman markazida amalga oshirilgan qurilish va bunyodkorlik ishlariga har qancha havas qilsa arziydi. Jumladan, tuman markazidagi M. Ismoliy, Islomobod ko‘chalarining ikki chetidagi pastqam uylar o‘rniga ikki va uch qavatli zamonaviy turar-joylar, savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish binolari qad rostladi.

Keyingi ikki-uch yil ichida Buyuk Turon, Qumguzar, Toshkechik, Nayman, Boymahalla, Uchko‘cha mahallalarida aholining turmush farovonligini oshirishga qaratilgan katta hajmdagi qurilish, bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Mazkur mahallalardagi aksariyat yo‘llar ta'mirlandi, ichimlik suvi, gaz, elektr energiyasi ta'minoti yanada yaxshilandi.

- Mahallamizdagi mingdan ortiq oila tarkibida 4 ming 900 nafarga yaqin aholi istiqomat qiladi, - deydi "Buyuk Turon" MFY raisi Mirzohid Aliqulov. - Barcha xonadonlar ichimlik suvi bilan ta'minlangan, mavjud 6 ta ko‘chamizdagi 22 kilometr uzunlikdagi ichki yo‘llarimiz asfaltlangan.

Mahallamiz aholisi uzumchilik bilan shug‘ullanadi, ya'ni 900 dan ortiq xonadonda uzum yetishtiriladi. Buning ortidan har bir oila yaxshigina daromad oladi. Qator ko‘chalarimizga uzum so‘rtoklar qilingan. Birgina shu yilning o‘tgan davri mobaynida Yoshlik va Ifor ko‘chalarining 2 kilometr qismida uzum so‘rtoklari barpo etildi.

Tumanda "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida joriy yil bahor mavsumida jami 615 ming tupdan ziyod mevali, manzarali daraxt va gul ko‘chatlari ekish rejalashtirilgan bo‘lsa, hozirga qadar 545 ming tupdan ortiq ko‘chat ekildi. Ayni kunlarda ko‘chat, gul ekish, ko‘kalamzorlashtirish ishlari davom etmoqda.

Tumanda dehqonchilik, ayniqsa, tomorqadan samarali foydalanish, uzumchilikni rivojlantirish borasida o‘ziga xos, ilg‘or tajriba maktabi shakllangan. Bugungi kunda aholi xonadonlarida uzum yetishtirish bo‘yicha mahallabay tizimi asosida ishlar olib borilmoqda.

Xususan, tumanning o‘ziga xos iqlimi, aholining uzumchilik sohasidagi tajribasidan kelib chiqib, 11 ta - Toshkechik, Uchko‘cha, Buyuk turon, Qumguzar, Farovon, Xontepa, Guliston, Boymahalla, Yuksalish, Shoxguzar va Do‘lana mahallasi uzum yetishtirishga ixtisoslashtirilgan.

Aholi xonadonlarining har birida yiliga 2 tonnadan 10 tonnagacha hosil yetishtiriladi. Bu bilan aholi uzum yetishtirishdan yiliga o‘rtacha 20-25 million so‘m daromad oladi.

Mazkur mahallalarda uzumchilikni rivojlantirish, ayniqsa, "Andijon tajribasi" sifatida ko‘chalarga so‘rtoklar qurilayotganligi yuqori samaralar bermoqda.

O‘tgan 2024-yilda tumandagi 21 ta mahallaning 30 dan ortiq ko‘chasidagi 398 ta xonadonga ajratilgan 8 milliard 850 million so‘m kredit evaziga 40 kilometr uzunlikdagi uzum ishkomlari barpo etildi. Bu boradagi ishlar joriy yilda ham davom ettirilib, yana 480 xonadon sohibiga 5 milliard so‘m kredit ajratish, ichki yo‘llarga ishkomlar qurish orqali yangi tokzorlar yaratish ko‘zda tutilgan.

Aholi xonadonlaridagi mavjud tomorqa yer maydonlaridan samarali foydalanish, berilayotgan imkoniyat va imtiyozlardan unumli foydalangan holda xonadonlarda issiqxona tashkil etish, parranda, chorva hayvonlari, quyonchilik, asalarichilik va boshqa ko‘plab yo‘nalishlarda tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yish, usta dehqonlar tajribalarini joriy etish, dehqonchilik qilish uchun yer maydonlari ajratish orqali aholining real daromadlarini oshirish, kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha ham e'tiborga molik ishlar olib borilmoqda.

Navro‘z bayramini ana shunday yutuqlar bilan nishonlayotgan buloqboshiliklar yanada ulkan marralar sari intilishi shubhasiz.

Bayram oldidan tuman mahallalarida o‘tkazilgan "Ayol -tarbiya, odob-ahloq timsoli", "Oila - muqaddas dargoh", "Keksalar hayoti - ibrat maktabi", "Navro‘z - milliy qadriyat va an'analarimiz timsoli", "Hamisha navqiron Navro‘zim" deb nomlangan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda mahallalarning faol ayollari, chaqqon kelinlari Navro‘z an'analari, bahoriy taomlar tayyorlash bo‘yicha bellashuvlarda ishtirok etdi. Nuroniy onaxonlar esa yoshlarga oila mustahkamligini ta'minlash, farzand tarbiyasi, ayollarning jamiyatdagi, oiladagi o‘rni haqida boy hayotiy tajribalarini gapirib berdi.

- O‘zbek ayoli, oila bekasi o‘zining fidoyiligi, odob-ahloqi, muomala madaniyati, yurish-turishi bilan barchaga ibarat bo‘lishi lozim, - deydi tuman bosh otinoyisi Umidaxon Otaxonova. - Bayram munosabati bilan o‘tkazilayotgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda o‘zlarining mazmunli va ibratli hayoti bilan barchaga namuna bo‘lib yashayotgan onaxonlarimiz, faol ayollarimizning hayoti yoshlarga ibrat qilib ko‘rsatilmoqda.

Bayram tantanasi davomida tuman mahallalari o‘rtasida o‘tkazilgan bahoriy taomlar tanlovi, milliy va sport o‘yinlari bayramga o‘zgacha shukuh bag‘ishladi. Ayniqsa, Bobodehqon, Bahoroy, yosh sportchilarning chiqishlari, shuningdek, maktabgacha, umumta'lim maktablari qoshidagi badiiy to‘garaklar tomonidan namoyish etilgan dasturlar, barchada katta taassurotlar qoldirdi.

Shu kuni doshqozonlarda xalqimizning shox taomi - sumalak tayyorlanib, sayl qatnashchilariga, mehmonlarga tarqatildi. Yoshu keksa bahoriy taomdan bahramand bo‘ldi.

Tadbirda badiiy va havaskorlik jamoalari, san'atkorlar tomonidan ijro etilgan kuy-qo‘shiqlar barchaga xushnudlik, ko‘tarinki kayfiyat bag‘ishladi.

Odamlarga bayramona kayfiyat, yuqori ko‘tarinkilik bag‘ishlayotgan bu kabi Navro‘z bayrami, "Sumalak sayli" tadbirlari viloyatning barcha tuman va shaharlarida bo‘lib o‘tmoqda.

Faxriddin UBAYDULLAYEV,
Zuxriddin UMRZOQOV (surat),
O‘zA muxbirlari.

МЕРОСХЎРЛАР ДИҚҚАТИГА!

Андижон шаҳри, 2 тор А.Акбаров кўчаси, 26-уйда яшаб, 2022 йил 20 июнь куни вафот этган марҳума **XODJAMBERDIYEVA MATLYUBAXON**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳуманинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Мустақиллик шохкўчаси, 6-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Қ.Э.Абдурахмонов нотариал идорасига,

Андижон шаҳрида яшаб, 2018 йил 2 апрель куни вафот этган марҳум **TULAKOV ABDUKODIR KUCHKAROVICH**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, А. Темур шохкўчаси, 35/А-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Д.А.Абдусоломова нотариал идорасига,

Андижон шаҳридаги уйда яшаб, 2024 йил 27 февраль куни вафот этган марҳума **ШАРАПОВА ПАРИДАХОН ХХХ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳуманинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Машраб кўчаси, 32-уй, 62-хонадонда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Б.А.Камалов нотариал идорасига,

Хонобод шаҳри, Янги ҳаёт МФЙ, Чаманзор кўчаси, 3-кўча, 60-уйда яшаб, 2022 йил 17 октябрь куни вафот этган марҳум **MADUMAROV MADAMIN DADAJANOVICH,**

Хонобод шаҳри, Кампирровот МФЙ, Оби ҳаёт кўчаси, 38-уйда яшаб, 2024 йил 9 ноябрь куни вафот этган марҳума **ZAXAROVA VALENTINA NIKOLAYEVNA**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Хонобод шаҳри, Обод кўчаси, 134-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Н.Зулунов нотариал идорасига,

Андижон туманида яшаб, 2022 йил 31 март куни вафот этган марҳум **MAXMUDOV MAXAMADALI MUKIMOVICH**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон тумани, Нўхатак МФЙ, Матбуотчи кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус И.И.Абдураҳмонов нотариал идорасига,

Андижон туманида яшаб, 1993 йил 4 февраль куни вафот этган марҳум **КУРБОНОВ ОРИФЖОН,**

Андижон туманида яшаб, 2024 йил 16 ноябрь куни вафот этган марҳума **ТЎЙЧИЕВА ДИЛБАРХОН АБДУМАЛИКОВНА**нинг мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон тумани, Дархон МФЙ, Истеъдод кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Н.О. Расулов нотариал идорасига,

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2015 йил 19 май куни вафот этган марҳум **BATIROV LATIF BAKIROVICH**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Жалақудуқ тумани, Ўзбекистон кўчаси, 57-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ф.Н.Акбаров нотариал идорасига,

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2019 йил 25 ноябрь куни вафот этган марҳум **МАМАДАЛИЕВ МАМАШАКИР,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 1992 йил 5 декабрь куни вафот этган марҳум **АБДУЛЛОЕВ УБАЙДУЛЛО ХХХ,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2007 йил 6 июнь куни вафот этган марҳум **МУЛЛАБАЕВ АЗАМАТЖОН ЭРКИНБАЙ ЎҒЛИ**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Жалақудуқ тумани, Ўзбекистон кўчаси, 57-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ш.Ю.Рахимов нотариал идорасига,

Избоскан тумани, Бўстон МФЙ, Юлдузлар кўчаси, 68-уйда яшаб, 2024 йил 18 июль куни вафот этган марҳум **АБДИМИТАЛИПОВ АСАНБОЙ ТОХТАСИНОВИЧ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Избоскан тумани, Нақшбанд кўчаси, 103 уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Д.С.Хатамова нотариал идорасига,

Избоскан тумани, Ўртақишлоқ МФЙ, Ижодкор кўчасидаги уйда яшаб, 2024 йил 30 август куни вафот этган марҳум **MADRAXIMOV OYBEK LATIFJONOVICH**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Избоскан тумани, Куйганёр МФЙ, Маданият йўли кўчаси, 4 уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус М.А.Акбаров нотариал идорасига,

Марҳамат тумани, Қорақўрғон ҚФЙ, Тайит қишлоқ кўчасидаги уйда яшаб, 2023 йил 3 октябрь куни вафот этган марҳум **ПОЗИЛОВ АХМАДЖОН,**

Марҳамат тумани, Шомат МФЙ, Ипак йўли кўчасидаги уйда яшаб, 2011 йил 30 декабрь куни вафот этган марҳума **ХУДАЙБЕРДИЕВА ЭНАХОН**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Марҳамат тумани, Бобуршоҳ кўчаси, 38 уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Т.Усмонов нотариал идорасига,

Олтинкўл тумани, Сарой-2 маҳалласида яшаб, 2024 йил 12 октябрь куни вафот этган марҳум **АЗИМОВ БАХОДИР МАМАЖОНОВИЧ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Олтинкўл тумани, Марказ маҳалласи, Олтин соҳил кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Б.К.Бердибеков нотариал идорасига,

Пахтаобод тумани, Эскиқўрғон МФЙда яшаб, 2022 йил 7 октябрь куни вафот этган марҳума **СОДИКОВА МАСТУРАХОН БОТИРОВНА**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳуманинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Пахтаобод тумани, Обод диёр кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус М.Ў.Тўйчибоев нотариал идорасига,

Шаҳрихон тумани, Юзлар МФЙда яшаб, 2024 йил 16 сентябрда вафот этган марҳум **ДАРВИШЕВ АБДУМАЛИК МАМУТОВИЧ,**

Шаҳрихон тумани, Сохиобод МФЙда яшаб, 2024 йил 19 майда вафот этган марҳум **РЎЗИМАТОВ ИКРОМЖОН ҒУЛОМОВИЧ,**

Шаҳрихон тумани, Маслаҳаттепа МФЙда яшаб, 2018 йил 20 майда вафот этган марҳум **RAZAKOV ISMOIL,**

Шаҳрихон тумани, Бўстон МФЙда яшаб, 2023 йил 1 августда вафот этган марҳум **ДЕХҚОНОВ ҚОБИЛЖОН БЕКМИРЗАЕВИЧ**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, тегишли ҳужжатлари билан Шаҳрихон тумани, Р.Ёдгоров кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Ахмаджонов нотариал идорасига,

Шаҳрихон тумани, Марказ МФЙда яшаб, 2021 йил 23 январда вафот этган марҳум **SIDIKOV SHUKRULLO XABIBULLAYEVICH**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, тегишли ҳужжатлари билан Шаҳрихон тумани, Р.Ёдгоров кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Маматов нотариал идорасига,

Бўстон тумани, Наврўз МФЙда яшаб, 2023 йил 16 декабрда вафот этган марҳум **SULAYMONOV ODILJON ERGASHEVICH**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Шаҳрихон тумани, Хамза кўчаси, 2-уй, 4-квартирада жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Б.Мўйдинов нотариал идорасига мурожаат қилишлари сўралади.

БИЛДИРУВ

2012 йил 23 июлдаги №1-28-19 квартира олди сотди шартномасига асосан **XAITOVA DILDORAXON KADIRBEK QIZI (ХАИТОВА ДИЛДОРАХОНГА КАДЫРБЕК КИЗИ)**га тегишли бўлган Хонобод шаҳар, Фитрат МФЙ, Хонобод кўчаси, 132А-уй, 47-квартирасининг Андижон вилояти ер ресурслари, ва давлат кадастри бошқармаси Андижон вилояти хўжалик ҳисобидаги "Ер мулк кадастр хизмати" ДУК Хонобод шаҳар идораси томонидан 2012 йил 17 августда №408F1-К-1 кадастр китобига 392-тартиб рақами билан рўйхатга ўтган 17.17.01.01.02.0012.0001.047-рақамли кадастр ҳужжатлари йўқолганлиги маълум қилинади.

ADOLAT MEZONI
MUASSIS: «Nurafshon gulshani» mas'uliyati cheklangan jamiyati

Muharrir: M.ORTIQOVA

Tahririyat manzili: Andijon shahri, Navoiy shohko'chasi, 71-uy. Telegram:(+998 99) 995-19-66 E-mail:and_mezoni@inbox.uz

Gazeta Andijon viloyati matbuot va axborot boshqarmasida 2010 yil, 16 martda 04-040 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr ko'rsatkichi - 2536

Gazeta tahririyat kompyuter bo'limida terilda va sahifalandi. «Andijon nashriyot-matbaa» MChJda orginal maket asosida chop etildi. Chop etishga topshirish vaqti 28.03.2025 yil, soat 11.00. Chop etishga topshirildi 28.03.2025 yil, soat 14.00 Korxona manzili: Andijon shahri, Navoiy shohko'chasi, 71-uy. Hajmi 2 bosma taboq. Qog'oz bichimi A-3. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma №0000141. 100 nusxada bosildi.

Navbatchi M.Mamatqulov. Dizayner: Sirojiddin Mamadali o'g'li